

## KOGNITIV TILSHUNOSLIKDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING IFODALANISHI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.6653608>

**Abdullayeva Visola Sherali qizi**

Yaqin Sharq tillari kafedrası o‘qituvchisi

**Umida Abdusamadova**

SamDChTI, Sharq tillari fakulteti, Filologiya va tillarni o‘qitish: Xitoy tili 2-bosqich  
207-guruh talabasi

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada xitoy xalqi folklori, til birliklari hamda frazeologik birliklar tuzilmasi haqida fikr yuritiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *Kognitiv tilshunoslik, konsept, subkonsept, felisitologiya, konstanta.*

### ABSTRACT

*This article discusses the structure of Chinese folklore, language units and phraseological units.*

**Keywords:** *Cognitive linguistics, concept, subconcept, felicitology, constant.*

### АННОТАЦИЯ

*В данной статье рассматривается структура китайского фольклора, языковые единицы и фразеологизмы.*

**Ключевые слова:** *Когнитивная лингвистика, концепт, субконцепт, фелицитология, константа.*

### KIRISH

Insoniyat yaralibdiki, til uning dunyoqarashi va madaniyati rivojida katta ahamiyatga ega. Aynan til yordamida har bir inson o‘zini anglash va tafakkur qilish jarayonini ifodalaydi. Tarixdan bizga ma’lumki, “biror-bir xalqni yo‘q qilmoqchi bo‘lsang, uning tilidan, madaniyatidan boshla” degan naql bor. Til- har bir etnosni indientifik ko‘rsatkichidir[6, b. 3] degan ta’rifdan ko‘rish mumkinki, til bu xalqning madaniyat, ma’rifat ko‘zglasidir. Zamonaviy tilshunoslikda XX asrning oxiri va XXI asr boshlariga kelib antroposentrik qarashlar birlamchiga aylanib, ko‘pgina yangi lingvistik sohalar, tarmoqlar yuzaga keldi. Shulardan biri kognitiv tilshunoslikdir.

Kognitiv tilshunoslik (inglizcha cognize-bilmoq, anglamoq, tushunmoq) falsafadagi bilish nazariyasi bilan cheklanmay, balki tilni tafakkur bilan bog‘lab, uning hosil bo‘lishidagi psixologik, biologik va neyrofiziologik jihatlarining ijtimoiy, madaniy, lisoniy hodisalar bilan uzviy aloqasini chuqur ilmiy tadqiq etadi. Kognitiv tilshunoslik psixologiyadagi tushuncha va konsept birliklari bilan ish ko‘radi. Konsept tushunchasi asosida ma‘no va obraz yotadi [2, b. 23]. Kognitiv tilshunoslik kognitologiya fanining tarkibiy qismi bo‘lib, unga 1956-yilda quyidagicha ta‘rif beriladi, “Axborot texnologiyalari taraqqiyoti natijasida yuzaga kelgan «sun‘iy intellekt» tizimi vositalariga oid mushohada, savollarga javob izlovchi” [14, b. 312] Dunyo tilshunosligida kognitiv tilshunoslik sohasi inson ongi va lison bilan bog‘liq bo‘lgan, his-tuyg‘ularini ifodalovchi til birliklarining leksik-semantik talqin etish muammosi jahonda eng ustuvor yo‘nalishlardan biri sanaladi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Kognitiv tilshunoslik tilshunoslikning “yosh” sohalaridan biri bo‘lib, rus tilshunosi E.S. Kubryakova “kognitiv” tushunchasi psixologiyadan kirib kelgan bo‘lib, u rus tiliga “bilishga taalluqli” ma‘nosida tarjima qilinadi” [6, b. 14] deb yozgan bo‘lsa, A.P. Babushkin “kognitologiya turli fan sohalari chorrahasida yuzaga kelgan fan” ekanligini ta‘kidlab o‘tgan va uning tadqiqot sohasi bilimni to‘plash, qo‘llash usullarini tadqiq qilish sifatida belgilanish kerakligi haqida yozilgan [4, b. 52-58]. Amerikalik olimlar Ronald Langaker, Rey Djekendoff esa o‘z tadqiqotlari bilan uning rivojlanishiga sababchi bo‘lganlar [3, b. 19]. Demak, kognitiv tilshunoslikning paydo bo‘lishida inson ongi, dunyoni bilishi, voqelikni aks ettirishi va tafakkuri alohida o‘rin kasb etadi.

Kognitiv tilshunoslikning asosi konsept hisoblanib, u fan sifatida XX asrning 70-yillarning o‘rtalarida shakllangan, aniqrog‘i rasman 1989-yilga Germaniyadagi Xalqaro tilshunoslar simpoziumda kiritiladi. Hozirga qadar kognitiv tilshunoslik haqida ko‘plab monografiyalar, tadqiqot ishlari yaratildi, ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, biroq o‘zbek tili ko‘rinishida hali-hanuz dolzarb masalalardan biri bo‘lib kelmoqda.

XX asrning birinchi choragida faylasuf S.Askoldov tomonidan 1928-yil ilmiy muomalaga kiritilgan ko‘pgina kognitiv manbalarda “konsept lotin tilida conceptus – “tushuncha” so‘zining kalkasidir” deya ta‘rif berilgan. Yana bir tilshunos Lyapin konsept– bu “ko‘p tarmoqli idealizatsiyalashtirilgan shakl” [9, b.16] degan, Kubryakovaning ta‘kidlashicha esa konsept – inson psixikasida aks etadigan, butun olam qiyofasini ifodalaydigan lisoniy ong bo‘lib, mental leksikonning xotiradagi operativ mazmuniy birligi sanaladi deb ta‘kidlaydi. Shu bilan birga “konsept inson

ruhiy olamidagi madaniyatning asosiy birligi(yacheykasi) hisoblanadi. Ular his tuyg‘ular, yoqtirish va yoqtirmaslik, ba’zida to‘qnashuvlar mavzusidir” degan ta’rifni Yu.S Stepanov (Stepanov Yu.S., 2004:) berib o‘tgan. Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinib turibdiki, hozirgacha kognitiv ta’rif keltirilmagan va o‘rganish jarayonida. Biz ham mazkur fikrlarni kelib chiqib, konsept ham umumiy, ham individual bo‘lib, har bir inson shaxsiy mental olamidani kelib chiqib, dunyoni, his-tuyg‘ularini, vazifani bajaruvchi tushuncha. Konseptni tahlil qilib o‘rganar ekan, tilshunoslar uni turlicha qismlarga ajratadi. Jumladan, Stepanov konsept tuzilishini 3 qismga bo‘lgan: a) asosiy (aktual) belgi; b) qo‘shimcha yoki passiv belgi; c) ichki shakl [11, b.46] Uning ta’kidlashicha, oxirgi belgi hozirda qo‘llanilayotgan konseptlarning tub komponentini ifodalab, asosan, birinchi shakli bilan bog‘liqlik tomoni kam bo‘ladi. Boshqa olimlar ham ta’riflarini keltirib o‘tsak: G.G. Slisikin yuqoridagi ta’rifdan farqli konseptni 4ta zonaga, ya’ni a) asosiy zona- intrazona va ekstrazona; qo‘shimcha zona – kvazizona va kvaziekstrazonalarga bo‘lib o‘rganib taklif qilgan bo‘lsa, Popov va Sterninlar ikkiga ya’ni v) yadroviy zona va periferik zonalarga ajratgan va ularning o‘zaro mutanosibliigi konsept strukturasi tushunchasiga berishi [10, b. 12] haqida tushuntirib o‘tilgan. Tilshunoslikda konsept lingvokognitiv va lingvomadaniy hodisa sifatida qaraladi. Konseptni o‘rganish uchun ma’lum bir millatning dunyoqarashi, turmush-sharoiti va mentaliteti, an’analarini o‘rganib, aynan o’sha konseptni tutgan o‘rnini aniqlab, tahlil qilish kerak.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Muvaffaqiyatli hayot yo‘li sifatida “baxt” konsepti qadim zamonlardan buyon jamoatchilik ongida mavjud bo‘lib, deyarli ko‘pgina konseptlarning ham tor ma’noda, ham keng ma’noda komponentlariga “mos”dir [5, b.6] biroq, aynan "baxt" konsepti aniq ichki shaklga ega, baxt haqidagi qarashlar etnomadaniy tarzda belgilanadi va birinchi taxminda bir sivilizatsiyadan boshqasiga farq qiladi [8, b.12]. Demak, “baxt” konsepti madaniyatning konstanti desak mubolag’a bo‘lmaydi. Quyida maqola doirasida bir-necha frazeologik birliklarda xitoy tilida “baxt” konseptining komponentlaridan biri bo‘lgan “boyluk” supkonseptini tahlilga tortdik:

一本万利 *yī běn wàn lì* kam mablag’ bilan katta daromadga ega bo‘lish

«史记»: “天下熙熙,皆为利来;天下攘攘,皆为利往。”旧时除夕夜 迎财神和 大年初二祭财神,都是春节 期间的民俗活动。这种印有财神爷和 吉利话的新春 帖子,是供迎、祭祀财 神用的,以求年初一分本,年底万分 利之福。

«Shǐjì»: “*Tiānxià xī xī, jiē wèi lì lái; tiānxià rǎngrǎng, jiē wèi lì wǎng.*” *Jiùshí chūxì yè yíng cáishén hé dà nián chū èr jì cáishén, dōu shì chūnjié qíjiān de mínsú*

*huódòng. Zhè zhǒng yìn yǒu cáishén yé hé jìlì huà de xīnchūn tiēzi, shì gōng yíng, jìsì cáishén yòng de, yǐ qiú nián chū yī fēn běn, niándì wàn fēn lizhī fú.*

«Shǐjì» (“Tarixiy yozuvlar”) kitobida yozilishicha: “osmon ostidagi hatti xarakterlar, barcha yumushlar ostida farovonlikka va mablag’ga bo‘lgan ehtiyoj yotadi”. Qadimdan xitoyliklar oy taqvimini bo‘yicha yangi yil arafasida va ikkinchi kunida boylik ilohi uchun qurbonliklar qilishadi, uylarga chorlashadi, bularning hammasi xitoy yangi yil bayrami vaqtidagi marosimlardir. Yuqorida keltirilgan so‘zlar, boylik ilohi suratlari bilan keltirilgan tabriknomalar aynan oy taqvimini bo‘yicha xitoy yangi yili oldi tadbirlarda qo‘llaniladi, ya’ni yil avvalida kichik mablag’ sarflab, yil so‘ngida katta daromad qo‘lga kiritishdir[1, b.23].

Yuqoridagi frazeologik birlikka keltirilgan ta’rifdan ko‘rinib turibdiki, xitoyliklar azaldan daromad olishga, biznesga usta xalqdir ya’ni biror-bir ishga boshlang’ich mablag’ sarflab, ma’lum bir muddatdan so‘ng katta daromadni qo‘lga kiritish haqidagi ushbu ibora Qing sulolasi (1644-1912y, 1917 yilda qisqa muddat tiklangan) davrida yashagan Ji Venning 《市声》 kitobining yigirma oltinchi bobida keltirilgan: “这回破釜沉舟，远行一趟，却指望收它个一本万利哩。 *Zhè huí pòfǔchénzhōu, yuǎn xíng yī tàng, què zhǐwàng shōu tā gè yīběnwàn lì lǐ.*”

Bu safar men barchasini yig‘ishtirib (O‘z qayiqlarini yoqib yuborish), uzoq safarga chiqdim, kam mablag’ bilan ko‘p daromad olishni umid qilgandim.

Ushbu frazeologik birlik qadimdan bayram tabriklarida ham qo‘llanilib, asosan tadbirkorlikda kam mablag’ bilan qiyinchiliklarsiz, yoqotishlarsiz maqsadga, daromadga erishishni ifodalaydi.

大吉大利 *dà jí dà lì* buyuk omad, baxt va omad,

古代最常见的钱是圆形方孔的铜钱，其形状取“天圆地方”，“外法天、内法地”之意。秦始皇时将其它各种形状的货币统一为这种形制，其后一直延用了两千余年。钱是财富的代表，图上还有金元宝及大吉大利字样，更是吉祥。

*Gǔdài zuì chángjiàn de qián shì yuán xíng fāng kǒng de tóngqián, qí xíngzhuàng qǔ “tiān yuán dìfāng”, “wài fǎ tiān, nèi fǎ de” zhī yì. Qínshǐhuáng shí jiāng qítā gè zhǒng xíngzhuàng de huòbì tǒngyī wéi zhè zhǒng xíngzhì, qí hòu yīzhí yán yòngle liǎng qiān yú nián. Qián shì cáifù de dàibiǎo, tú shàng hái yǒu jīn yuánbǎo jí dàjí dàlì zìyàng, gèng shì jíxiáng.*

Qadim zamonlardan eng keng tarqalgan pullar bu yumaloq, o‘rtasi to‘rtburchak teshikli mis pullar bo‘lgan. Ushbu pullarning shakli "yumaloq osmon, to‘rtburchak yer", "tashqi tomon osmon va ichki tomon yer" ma'nosini ifodalagan. Qin Shihuang imperatorlik davrida har xil shakldagi boshqa pullarni aynan ushbu shaklga

birlashtirdi va aynan shu shakldagi tangalar ikki ming yildan ko'proq vaqt davomida muomalada bo'ldi. Pul – boylik ramzi. Ushbu tangalarda "buyuk omad" yozuvi ham bor, bu yanada xayrlidir.

Mazkur frazeologik birlikda xitoy xalqining pul, martabaga bo'lgan munosabatini ko'rish mumkin. Matnda Xitoyning birinchi imperatori, Qin imperiyasi (m.av. 221- m. 206-yillar) asoschisi Qin Shihuan hukmronlik davri keltirilgan bo'lib, qadimiy puli ya'ni tangananing shakliga ham izoh berib ketilgan. Yumaloq tanga osmonni ifodalasa, markaziy to'rtburchak teshik yerni anglatib, butun bir borliqni o'zida aks ettirgan. Xitoyning oy taqvimi bo'yicha yangi yil (春节) bayramida ham suvenir tangachalar, tabriknomalarda aynan mazkur frazeologik birlik yoziladi.

Qadimda bashorat qilish uchun ham keng qo'llanilgan.

五谷丰登 *wǔ gǔ fēng dēng* farovonlik, to'kin-sochinlik, hosildorlik.

五谷丰登,是对太平盛世、丰收年景的祝颂。五谷为五种谷物:稻、黍、稷、麦、菽。《周礼·天官·疾医》:“以五味、五谷、五味养其病。”佛教密宗修法也使用五谷,以五谷泛指农作物。《汉书·酈食其传》:“民以食为天。”

*Wǔgǔ fēngdēng, shì duì tàipíng shèngshì, fēngshōu nián jǐng de zhù sòng. Wǔgǔ wèi wǔ zhǒng gǔwù: Dào, shǔ, jì, mài, shū. “Zhōu lǐ-tiān guān-jí yī”: “Yǐ wǔwèi, wǔgǔ, wǔwèi yǎng qí bìng.” Fójiào mìzōng xiūfǎ yě shīyòng wǔgǔ, yǐ wǔgǔ fàn zhǐ nóngzuòwù. “Hàn shū-lì shí qí chuán”: “Mín yǐ shí wéi tiān.”* 五谷丰登 tinchlik va farovonlik, donning ko'pliginidan dalolatdir. 五谷

Quyidagi besh xil donni o'z ichiga oladi: guruch, tariq(пшено), tariq, bug'doy va sunon (dukkakli o'simliklar). 《Chjou Li·Tian Guan·Kasallik tabobati》: “besh xil turdagi don mahsulotlarini bemorlar iste'mol qiladi, kasallikni bartaraf qiladi.” Buddizm tantrik amaliyotida ham ushbu mahsulotlardan foydalaniladi. "Han Shu·Li Shiqi Tarjimai holi": "Odamlar oziq-ovqat mahsulotlarini osmonning marhamatidir", deb aytishadi.

Xitoyliklarni oziq-ovqatga bo'lgan munosabati barchaga ma'lum bo'lsa kerak ya'ni ular tabobatni aynan sog'lom turmush tarzi bilan bog'lashadi, shu sababdan ham xitoy tilidan to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilsak, “dori-darmon ichish” emas, bal'ki “iste'mol qilish” kabi iborani uchratishimiz mumkin. Guruch mahsulotini esa xitoyliklarchalik ko'p iste'mol qiladigan xalq bo'lmasa kerak. Aynan, yuqoridagi besh turdagi don mahsulotlarining bo'lishi, mo'l hosildan darak desak mubolag'a bo'lmaydi. Marosimlarda, tabrik so'zlarda hosildorlik, farovonlik bo'lsin ma'nosida mazkur frazeologik birlikni uchratishimiz mumkin.

功名富贵 *gōngmíng fùguì* shon-sharaf va boylik, ulug’ martaba va boylik tilamoq

大鸡作为“大吉”之物,备“五德”。鸡鸣将旦,光明到来,以“公鸣”谐音“功名”。刘禹锡《同乐天送令狐相公赴东都留守》:“世上功名兼将相,人间声价是文章。”苏轼《墨宝堂论》:“士当以功名闻于世。”功成名就自有富贵。

*Dà jī zuòwéi “dàjí” zhī wù, bèi “wǔ dé”. Jī míng jiāng dàn, guāngmíng dàolái, yǐ “gōngmíng” xiéyīn “gōngmíng”. Liúyǔxī “tóng lè tiān sòng lìng hú xiànggong fù dōng dū liúshǒu”: “Shìshàng gōngmíng jiān jiàng xiàng, rénjiān shēng jià shì wénzhāng.” Sūshì “mòbǎo táng lùn”: “Shì dāng yǐ gōng míng wén yú shì.” Gōngchéngmíngjiù zì yǒu fùguì.*

Xo‘roz “omad” kabi talaffuz qilinishi, o‘zida beshta fazilatni mujassamlaydi. Xo‘roz qichqirishi bilan tong otadi, shu bilan birga xo‘roz bilan shuhrat xitoy tilida ohagdosdir. Tan sulolasi(618—907) davrida yashab, ijod qilgan Liu Yuxi va Song sulolasi (960-1279) davrida yashab, ijod qilgan Su Shining she'rlarida usha davrning talabidan kelib chiqib, mansabdor shaxslarni topish va ulug’lashga katta ahamiyat berilgan. Mansabdor shaxslarning o‘z-o‘zidan boyligi ham ko‘payadi kabi qarashlar hukm surgan.

Mazkur frazeologik birlik xo‘roz xitoyliklar uchun “omad” yoki “shon-shuhrat” timsoli ekani ko‘rsatmoqda, shu bilan birga sharq davlati sifatida mansabga katta e’tibor berilishini ifodalaydi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa sifatida yuqoridagi barcha misollar “baxt” konseptining asosiy komponentlaridan biri “boylik” subkonseptini ifodalaydi. Agar baxt komponentlarini shkala bo‘ylab yozib chiqsak, har bir inson uchun mazkur subkonsept nechanchi o‘rinda turishi uning dunyoni qabul qilishi bilan bog‘liq bo‘ladi. Aynan insonning ruhiy holati haqida ham ma’lumot olish mumkin, “Sen baxt deganda nimani tushunishingni ayt, men senga kimligingni aytaman” [5, b.6] degan naql ham bekorga emas. Falsafa va psixologiya rivojlanish tarixida ham “baxt”ni tushunish bo‘lgan harakatlar hozirda, felisitologiyani (baxtning nazariy va amaliy muammolari o‘rganuvchi yo‘nalish) paydo bo‘lishiga olib keldi. Biroq, “madaniy va psixologik yo‘nalishlarda o‘z ahamiyatiga ega bo‘lishiga qaramay, “baxt” konsepti tilshunoslik sohasida to‘liq qamrovda o‘rganilmagan” deydi tilshunos Vorkachev, biz ham mazkur fikrga qo‘shilgan holda, xitoy madaniyatining “baxt” konsepti bilan bog‘liq yo‘nalishi tahlilini amalga oshirmoqchimiz va psixologik ahamiyatga ega bo‘lishiga

qaramay, biz bilganimizdek, baxt tushunchasi hali o'z tilshunoslik qamrovini olmagan.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. 黄全信, 中华五福吉祥图典, 华语教学出版社, –北京 2003., – С.245.
2. Abduazizov AA. Tilshunoslik nazariyasiga kirish.- Toshkent: Sharq, 2010.176b.
3. Khamroeva, F. F., & Abdullaeva, V. S. (2022). NOVELS THAT CREATE ADDITIONAL NARRATIVE STRUCTURES.(THE ICE PALACE). *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(2), 703-709.
4. George Lakoff, Mark Johnson. *Metaphors We Live By*. The University of Chicago Press. 2003, 193p.
5. Бабушкин А.П. Концепты разных туров в лексике и фразеологии и методика их выявления. // Методологические проблемы когнитивной лингвистики. – Воронеж, 2001, 52-58с.
6. Воркачев С.Г. Концепт счастья в русском языковом сознании: опыт лингвокультурологического анализа- Краснодар КТУ, 2002. -142 с.
7. Кубрякова Э.С. Об установках когнитивной науки и актуальных проблемах когнитивной лингвистики// Вопросы когнитивной лингвистики. Москва,2004. -С.10-14.
8. Кубрякова Е.С. Концепт // Краткий словарь когнитивных терминов. -М., Изд-во Моск. Ун-та, 1997. –С 90-93
9. Кларин М.В. На путях познания счастья (вступительная статья) // Аргайл М. Психология счастья. М., 1990. С.5-26.
10. Ляпин С.Х. Концептология: к становлению подхода // Концепты. Вып. I. Архангельск, 1997. С.11-35.
11. Попова З Д. Стернин И.А. Язык и национальная картина мира - Воронеж: Истоки, 2002 - 60 с
12. Степанов, Ю. С. Константы: Словарь русской культуры – М.: Академиче-ский проект, 2004. 992с
13. Слышкин Г.Г. Лингвокультурные концепты и истаконцепты Волгоград: Перемена, 2004. - С.17-18
14. Степанов Ю.С. Константы: Словарь русской культуры -М. Языки русской культуры, 1997.-С. 41

15. Тулкиновна Г.А., Эшбоева Т.С., Cognitive analysis of the concept «woman» in the French language// Молодой ученый Международный научный журнал № 30 (320) / 2020.
16. Ошанин И. М. (ред.) Большой китайско-русский словарь.Т. 1-4. М.: Наука, 1983-1984. – С.1062.
17. Китайско-русский словарь /Сост. Фу Чонг. – Шанхай, 2004. – 1249 с.
18. <http://xh.5156edu.com/html5/79339.html>
19. [http://chengyu.t086.com/c\\_b4f4](http://chengyu.t086.com/c_b4f4)
20. Nasirova, S. A., Hashimova, S. A., & Rikhsieva, G. S. (2021). THE INFLUENCE OF THE POLITICAL SYSTEM OF CHINA ON THE FORMATION OF SOCIAL AND POLITICAL TERMINOLOGY. *Journal of Central Asian Social Studies*, 2(04), 10-17.
21. Mirzakhmedova, H. V., Omonov, K. S., & Khalmurzaeva, N. T. (2021). METHODS OF IMPROVING LANGUAGE SKILLS USING MEDIA SOFTWARE. *Journal of Central Asian Social Studies*, 2(03), 47-55.
22. SA Hashimova Peculiarities of Making Nouns Using Suffixes in Chinese (On the Example of Suffixes 家 “Jia” and 者 “Zhe”)- *International Journal of Multicultural and Multireligious ...*, 2021
23. Турниязов, Н. К. (1985). Принципы формирования синтаксической структуры сложноподчинённого предложения в узбекском языке/-Ташкент. Укитувчи.-1985,-с22.
24. Turniyozov, N., & Rahimov, A. (2006). O'zbek Tili [M].
25. Турниёзов, Н. (1998). Назарий грамматикадан очерклар. Самарқанд: СамДЧТИ, 998, 48.
26. Сулейманова, Н. М., & Турниязов, Н. К. (2018). О ФОРМИРОВАНИИ СТРУКТУРНОЙ СХЕМЫ В ЧЕЛОВЕЧЕСКОМ СОЗНАНИИ. In *Научные школы. Молодёжь в науке и культуре XXI века* (pp. 39-42).
27. Турниёзов, Н. (2016). Синтагматик муносабат ва дискурс шаклланишига доир баъзи қайдлар. *Иностранная филология: язык, литература, образование*, 1(4), 10-13.
28. Джураев, Д. (2020). Талабаларни таълим жараёнида хитой тилига ўқитиш самарадорлигини ошириш методлари. *Иностранная филология: язык, литература, образование*, (1 (74)), 124-127.
29. Джураев, Д. (2021). ХИТОЙ ТИЛИНИ ЎҚИТИШУДА ТАЛАБА ХАРАКТЕРИНИНГ АҲАМИЯТИ. *АКТУАЛЬНОЕ В ФИЛОЛОГИИ*, 1(1).



30. Джураев, Д. М. (2017, January). ИСТОРИЧЕСКИЕ ПРЕДПОСЫЛКИ ОБУЧЕНИЯ И МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ КИТАЙСКОГО ЯЗЫКА В УЗБЕКИСТАНЕ. In Актуальные вопросы преподавания китайского и других восточных языков в XXI в. (pp. 84-88).
31. Odil o'gli, T. I. (2021, October). Qadimgi Xitoy Madaniyatining Shakllanishi. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 137-139).
32. Tojiboev, I. O. U. (2021). CHINESE ARCHITECTURE. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(8), 40-42.
33. Odil o'g'li, T. I. The history of the origin of the Chinese language and the work done to date.
34. Тухтасинов, И. М. (2011). Лингвокультурологические и гендерные особенности сложных слов в художественном тексте (на материале английского и узбекского языков). Автореф. дисс.... канд. филол. наук. Ташкент: УзГУМЯ.
35. Тухтасинов, И., & Хакимов, М. (2021). Modern views on the problem of distance and traditional methods of teaching italian language in higher education institutions. Society and Innovation, 2(2), 111-117.
36. Tukhtasinov, I. M., Muminov, O. M., & Khamidov, A. A. (2017). The days gone by. Novel by Abdulla Qodiriy. Toshkent.
37. Tukhtasinov, I. M. (2018). The structure of the phenomenon of equivalence and its importance for translation strategies. In Modern Romano-German linguistics and new pedagogical technologies in language teaching, Materials of the Republican scientific-practical conference, Samarkand.
38. Тухтасинов, И. М. (2018). Развитие профессиональной компетенции на основе эквивалентности при подготовке переводчиков.
39. Tukhtasinov, I. M. (2017). Discursive approach in the training of translators. In Mat. International scientific and creative forum" Youth in science and culture of the XXI century". Chelyabinsk: Chelyabinsk State Institute of Culture (pp. 229-231).
40. Тухтасинов, И. М. (2012). Национально-культурная специфика сложных слов, выражающих внешность и характер человека, в английском и узбекском языках. Вестник Челябинского государственного университета, (2 (256)), 122-125.
41. Тухтасинов, И., & Хакимов, М. (2021). Современные взгляды на проблему дистанционного и традиционного методов обучения итальянскому языку в высших учебных заведениях. Общество и инновации, 2(2), 111-117.

42. Тухтасинов, И. М. (2017). Дискурсивный подход в обучении переводчиков. In Научные школы. Молодежь в науке и культуре XXI в. (pp. 229-231).
43. Тухтасинов, И. (2021). Таржимоннинг касбий компетенцияси ва фаолият функциялари. Иностранная филология: язык, литература, образование, (3 (80)), 5-10.
44. Тухтасинов, И. (2021). Особенности формирования учебного процесса в системе высшего образования Узбекистана в условиях Covid-19. Иностранная филология: язык, литература, образование, (1 (78)), 11-18.
45. Тухтасинов, И. М. (2020). Лингвокультурологический аспект обучения переводческой компетенции. In Язык и культура (pp. 226-231).
46. Tuxtasinov Maqsadjon Murodjon O‘G‘Li (2020). San‘at va madaniyat sohasi talabalari bilimlarini nazorat qilishda nostandart testlarning afzalliklari. Oriental Art and Culture, (III), 320-325.
47. Тухтасинов, У. М. (2020). ИГРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА. Мирская наука, (3), 498-501.
48. Тухтасинов, И. М. (2020). Лингвокультурологический аспект обучения переводческой компетенции. In Язык и культура (pp. 226-231).
49. Tuhtasinov, Pihom and Lutfilloeva, Fahriniso, The Japanese Language Teaching Technologies Based on Computer Simulation Models (September 10, 2019). Available at SSRN: <https://ssrn.com/abstract=3458780>
50. Тухтасинов, И. М. (2019). ВНЕДРЕНИЕ ИННОВАЦИЙ В ПРОЦЕСС ОБУЧЕНИЯ ТЕОРИИ И ПРАКТИКИ ПЕРЕВОДА. In Россия-Узбекистан. Международные образовательные и социально-культурные технологии: векторы развития (pp. 111-113).
51. Сукиасян, Г. А., Тухтасинов, И. М., Гушул, Ю. В., & Баштанар, И. М. (2019). Научные школы. Молодежь в науке и культуре XXI века: материалы междунар. науч.-творч. форума (научной конференции), 7–8 нояб. 2019 г./сост.: СБ Синецкий (отв. сост.).
52. Тухтасинов, И. М. (2018). Методика выявления эквивалентности слов разносистемных языков в процессе перевода. Бюллетень науки и практики, 4(7), 539-544.
53. Тухтасинов, И. (2017). Таржимада маданият мослашиш ҳолатлари. Иностранная филология: язык, литература, образование, 2(2 (63)), 5-9.
54. Тухтасинов, И. (2017). Жамият тарихининг ҳозирги босқичида таржимонлар тайёрлашнинг асосий муаммолари. Иностранная филология: язык, литература, образование, 2(4 (65)), 20-24.

- 
55. Тухтасинов, И. (2016). Таржима назариясида тиллараро эквивалентлик тушунчаси ва унинг тадқиқи. Иностранная филология: язык, литература, образование, 1(4), 26-30.
56. Тухтасинов, И. М. СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ СПЕЦИФИКА В ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ. ББК 74.48 Р 76, 314.